ZAMONAVIY ILM-FAN: FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION TARAQQIYOT

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MAQOLA VA TEZISLAR TO‘PLAMI



“FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR” ILMIY-AMALIY METODOLOGIK JURNALI

“ZAMONAVIY ILM-FAN: FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION TARAQQIYOT” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MAQOLA VA TEZISLAR TO‘PLAMI
2026-yil 12-noyabr

Toshkent – 2026

ISSN:3093-9240

“Zamonaviy ilm-fan:fanlararo integratsiya va innovatsion taraqqiyot” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqola va tezislar to‘plami (2026-yil 12-noyabr) – T.: FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR, 2026.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR KENGASHI
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Mirzayeva Faroxat Odiljonovna
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Bafayev Muxiddin Muxammatovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Atabayeva Nargis Batirovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Jabborov Xazrat Xusenovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Alimova Yelena Gennadiyevna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

PLUGLARNING TURLARI VA ULAR BILAN TUPROQQA ASOSIY ISHLOV BERISH AHAMIYATI

Fayzulloyev Muxriddin Nasriddin o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti doktoranti
E-mail: muxriddin_fayzulloyev@mail.ru

Sayfulloyev Azizbek Anvarjon o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti talabasi
E-mail: Sayfullayevazizbek50@gmail.com

Orziyev Sardor Samandar o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti
E-mail: sorziyev891@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida tuproqqa asosiy ishlov berishda qo‘llaniladigan pluglarning vazifasi, tasnifi, konstruktiv xususiyatlari va ishlash prinsiplari yoritilgan. Pluglar foydalanish maqsadiga ko‘ra umumiy va maxsus ishlarga mo‘ljallangan guruhlarga ajratilib, ularning qo‘llanish sharoitlari tahlil qilingan. Lemexli-ag‘dargichli, aylanma, diskli hamda maxsus pluglarning asosiy ko‘rinishlari, ishchi qismlari va agrotexnik vazifalari bayon etilgan. Shuningdek, plug tanlashda tuproq-iqlim sharoiti, ekin turi, haydash chuqurligi, dalaning relyefi va energiya sarfini hisobga olish zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: plug, tuproqqa asosiy ishlov berish, lemex, ag‘dargich, korpus, diskli plug, aylanma plug, maxsus plug, shudgorlash, agrotexnik talab.

Аннотация. В статье освещены назначение, классификация, конструктивные особенности и принципы работы плугов, применяемых для основной обработки почвы в сельском хозяйстве. По назначению плуги разделены на группы общего и специального назначения, проанализированы условия их применения. Описаны основные разновидности, рабочие органы и агротехнические функции лемешно-отвальных, оборотных, дисковых и специальных плугов. Также обоснована необходимость учёта почвенно-климатических условий, вида возделываемой культуры, глубины вспашки, рельефа поля и энергозатрат при выборе плуга.

Ключевые слова: плуг, основная обработка почвы, лемех, отвал, корпус плуга, дисковый плуг, оборотный плуг, специальный плуг, вспашка, агротехнические требования.

Abstract. This article examines the functions, classification, design features, and operating principles of ploughs used for primary tillage in agriculture. Ploughs are

classified according to their intended use into general-purpose and specialized groups, and their operating conditions are analyzed. The main types, working components, and agronomic functions of mouldboard, reversible, disc, and specialized ploughs are described. The article also establishes the importance of considering soil and climatic conditions, crop type, ploughing depth, field topography, and energy consumption when selecting a plough.

Keywords: plough, primary tillage, ploughshare, mouldboard, plough body, disc plough, reversible plough, specialized plough, ploughing, agrotechnical requirements.

KIRISH

Tuproqqa asosiy ishlov berish qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish texnologiyasidagi muhim agrotexnik tadbirlardan biridir. Ushbu jarayon tuproqning haydalma qatlamini yumshatish, zichlangan qatlamlarni buzish, o‘simlik qoldiqlari va begona o‘tlarni tuproqqa ko‘mish, suv-havo hamda oziqa rejimini yaxshilashga xizmat qiladi. Asosiy ishlov berishning sifati keyingi ekish, parvarishlash va hosil yig‘ishtirish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Respublikamiz hududlarida tuproq tarkibi va mexanik xususiyatlari, sho‘rlanish darajasi, namlik, relyef hamda yetishtiriladigan ekinlar turlicha. Shu sababli barcha maydonlarda bir xil konstruksiyadagi plugdan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Plug turi va ishchi organlari muayyan tuproq sharoiti hamda agrotexnik talablar asosida tanlanishi lozim.

Hosildorlikni oshirish, tuproq tarkibidagi suv va ozuqa moddalarini uzoq vaqt saqlash va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish uchun tuproqqa ishlov berishda yangi zamonaviy uskunalarni va qurilmalarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi [1] .

An’anaviy usulda plug bilan yerni kamida 20 sm chuqurlikda haydab, asosiy, so‘ngra turli tirma, kultivator, plug, freza kabi mashinalar bilan sayoz ishlov beriladi. Plugda ishlov berishda yerning ustki qatlami qirqilib ajratiladi va yon tomonga siljitilib, ma’lum burchakka burib ag‘dariladi. Qirqilgan palaxsa qatlami ag‘darilishi natijasida maydalanadi, yumshatiladi tuproqning, strukturasi tiklanadi, begona o‘t urug‘lari va qoldiqlari hamda hasharotlar ko‘miladi, yer yuziga esa tuproqning pastki, ya’ni chirindiga boy qatlami chiqarib tashlanadi [2].

ASOSIY QISM

Tahlillar ko‘rsatadiki, plug yordamida yerlarni shudgorlashda o‘simliklarning tomir tizimini erkin rivojlanishini ta’minlaydigan yumshoq tuproq qatlami hosil qilinadi va natijada ekilgan o‘simliklardan turg‘un ravishda yuqori hosil olish ta’minlanadi [3;4].

Shudgorlash yerga chuqur ishlov berishning eng mashhur usuli va eng ko‘p

energiya sarflaydigan usuli hisoblanadi. Bu tuproqni chuqur yumshatishni o‘z ichiga oladi. Natijada unumdorlikni tiklash va tuproqning optimal jismoniy holati. Shudgorlash bahor yoki kuzda amalga oshiriladi. Kuzgi shudgor begona o‘tlarning ildizlarini yo‘q qiladi va qor erishidan namlik keyinroq to‘planib, urug‘ning unib chiqish salohiyatini yanada oshiradi. [5].

Plug — tuproqqa asosiy ishlov berish uchun mo‘ljallangan qishloq xo‘jaligi mashinasi bo‘lib, uning ishchi organlari tuproq qatlamini kesadi, ko‘taradi, maydalaydi va konstruksiyasiga qarab ma’lum darajada ag‘daradi. Lemexli-ag‘dargichli pluglarda qatlamning ag‘darilishi begona o‘tlar va o‘simlik qoldiqlarini ko‘mishga yordam beradi.

Pluglarni bir necha belgi bo‘yicha sinflanishi mumkin:

Foydalanish maqsadiga ko‘ra - umumiy ishlarga va maxsus ishlarga mo‘ljallangan;

Konstruksiyasiga ko‘ra - lemexli-ag‘dargichli, diskli va boshqa maxsus ishchi organli;

Traktorga ulanishiga ko‘ra - osma, yarim osma va tirkalma;

Ishlash usuliga ko‘ra - bir tomonga ag‘daruvchi va aylanma (reversiv) pluglar;

Korpuslar soniga ko‘ra - bir korpusli, ikki korpusli, ko‘p korpusli.

Umumiy ishlarga mo‘ljallangan pluglar haydaladigan ekin maydonlarida tuproqqa odatiy asosiy ishlov berish uchun qo‘llaniladi. Ular turli mexanik tarkibli tuproqlarda, ekin qoldiqlari va begona o‘tlar mavjud bo‘lgan dalalarda ishlashga moslashtiriladi. Bunday pluglarning eng keng tarqalgan turi lemexli-ag‘dargichli plug hisoblanadi.


Lemexli-ag‘dargichli plug- plug korpusi tuproq qatlamini pastdan kesib, yuqoriga ko‘taradi va ag‘dargich yuzasi bo‘ylab yon tomonga buradi. Natijada qatlam ag‘dariladi, begona o‘tlar hamda o‘simlik qoldiqlarining bir qismi tuproq ostida qoladi. Korpusning shakli va ag‘dargich yuzasining egriligi qatlamni maydalash hamda ag‘darish darajasiga ta’sir qiladi.

Umumiy maqsadli korpuslar odatiy shudgorlash ishlariga mo‘ljallanadi. Ayrim konstruksiyalarda ag‘dargich panjarali (tirqishli) bajariladi; bunday yechim yopishqoq tuproqlarda korpus yuzasiga tuproq yopishishini kamaytirishga yordam berishi mumkin.

Aylanma (reversiv) plug-aylanma plug qarama-qarshi yo‘nalishda joylashgan o‘ng va chap ag‘dargichli korpuslar bilan jihozlanadi. Dala bo‘ylab ish yo‘nalishi o‘zgarganda plugning korpuslar bloki aylantiriladi va tuproq doimo bir tomonga ag‘dariladi. Bu usulda haydashda markaziy marza va ochiq egatlarning hosil bo‘lishi kamayadi, dala yuzasi nisbatan tekis chiqadi. Bunday pluglar, ayniqsa, uzun dalalarda va qaytish yo‘laklari mavjud maydonlarda foydali.

Diskli plug-diskli plugning asosiy ishchi organlari ma’lum burchak ostida o‘rnatilgan botiq po‘lat disklardan iborat. Disklar tuproqni kesadi, ko‘taradi va aylanish jarayonida yon tomonga siljitadi. Ular ayrim og‘ir, quruq, qattiq yoki o‘simlik qoldiqlari ko‘p bo‘lgan sharoitlarda qo‘llanishi mumkin. Diskli plugni tanlashda tuproqning namligi, abrazivligi, disk diametri va o‘rnatilish burchaklari hisobga olinadi.

Umumiy maqsadli pluglarning asosiy qismlari-plugning umumiy tuzilishiga rama, osish yoki tirkash qurilmasi, g‘ildiraklar, korpuslar, lemexlar, ag‘dargichlar, dala taxtalari va zarur hollarda chimqirqar hamda pichoqlar kiradi. Konstruksiyaga qarab ayrim qismlar bo‘lmasligi yoki boshqacha shaklda bajarilishi mumkin.



1-rasm. Lemexli-ag‘dargichli plugning asosiy qismlari
1 - osish qurilmasi, 2 - rama, 3 - tayanch g‘ildirak, 4 - diskli pichoq,
5 -chimqirqar 6 - ag‘dargich, 7 - lemex, 8 - dala taxtasi (yon tayanch)

Maxsus ishlarga mo‘ljallangan pluglar - Maxsus pluglar oddiy shudgorlash sharoitidan farq qiladigan maydonlarda yoki muayyan ekin va agrotexnik vazifalar uchun ishlab chiqiladi. Ularning konstruksiyasi tuproqning o‘ziga xos xususiyati, o‘simliklar joylashuvi, ishlov chuqurligi va maydonning meliorativ holatiga moslashtiriladi.

Botqoq va butazor yerlarni o‘zlashtirish pluglari- Botqoqlashgan, chim bosgan yoki butazor bilan qoplangan yerlarni o‘zlashtirishda qo‘llanadi. Kuchaytirilgan rama va yirik ishchi organlar bilan jihozlanishi mumkin. Ayrim turlari o‘simlik qoplami va

ildizlarni kesib, tuproq qatlamini ag‘darishga mo‘ljallangan.

Plantatsiya pluglari - Bog‘, tokzor yoki ko‘p yillik ekinlar barpo etishdan oldin tuproqni chuqur haydash uchun ishlatiladi. Ular odatiy pluglarga nisbatan chuqurroq ishlov berishga mo‘ljallangan bo‘lib, kuchli traktor bilan agregatlanadi. Ishlov chuqurligi loyiha va tuproq sharoitiga qarab belgilanadi.


Bog‘ va tokzor pluglari- Daraxt va tok qator oralari hamda tanaga yaqin hududlarda ishlash uchun moslashtiriladi. Ko‘pincha siljitiladigan yoki yon tomonga suriladigan ishchi organlar, himoya moslamalari bilan jihozlanadi. Bu konstruksiya daraxt tanasi va ildiz zonasiga zarar yetkazish xavfini kamaytiradi.

Toshloq yerlar uchun pluglar -Toshlar uchraydigan maydonlarda ishchi organlarning shikastlanish xavfini kamaytirish uchun prujinali yoki avtomatik himoya mexanizmlari qo‘llanadi. To‘siqqa duch kelganda korpus vaqtincha orqaga yoki yuqoriga siljib, toshdan o‘tib ketishi va ish holatiga qaytishi mumkin.

Qatlamlab haydaydigan (yarusli) pluglar -Sho‘rlangan yoki meliorativ jihatdan murakkab ayrim tuproqlarda qatlamlarni belgilangan tartibda alohida chuqurliklarda kesish va joyini o‘zgartirish uchun ishlatiladi. Bunda tuproq qatlamlarini aralashtirish yoki ag‘darish sxemasi oldindan belgilangan agrotexnik talabga mos bo‘lishi kerak. Bunday plugdan foydalanish tuproq kesimi va sho‘rlanish holatini hisobga olgan holda asoslanadi [6; 7].

Yerosti qatlamini yumshatuvchi maxsus pluglar va chuqur yumshatkichlar - Zichlangan haydalma osti qatlamini buzish uchun chuqur yumshatkichlar qo‘llanadi. Ular tuproqni yuqoriga ag‘darmasdan yoriqlar hosil qilib yumshatadi. Texnik adabiyotlarda ayrim maxsus pluglar qatorida tilga olinsa-da, konstruktiv va texnologik jihatdan ularni ag‘dargichli plugdan farqlash lozim.

Ariq va zovur ochuvchi maxsus pluglar- Suv chiqarish, sug‘orish yoki meliorativ tarmoqlar uchun belgilangan shakl va chuqurlikdagi egat, ariq yoki zovur hosil qilishda qo‘llanadi. Ularning ishchi organi tuproqni kesib, yon tomonga chiqarish yoki kanal kesimini shakllantirishga moslashtiriladi.



2-rasm. Pluglarning ayrim konstruktiv ko‘rinishlari

A - ko‘p korpusli lemexli plug, B - aylanma plug, C - diskli plug, D - bog‘-tokzor sharoitiga moslashtirilgan plug, E - maxsus og‘ir sharoit plugi, F - chuqur yumshatkich.

Plug bilan shudgorlashning asosiy usullari - Shudgorlash usuli dala shakli, uzunligi, relyefi, plug konstruksiyasi va agrotexnik talabga qarab tanlanadi. Amaliyotda quyidagi usullar uchraydi:

Marza hosil qilib haydash - Maydon chetidan yoki markazidan boshlab, tuproq qatlamlarini bir tomonga ag‘darish orqali bajariladi. Natijada marza va egatlar hosil bo‘lishi mumkin.

Aylanma usulda haydash - Dala chetidan boshlab uzluksiz aylanma harakat bilan bajariladi. Burilishlar va qatlamning ag‘darilish yo‘nalishi plug turiga qarab belgilanadi [8; 9; 10].

Reversiv plug bilan haydash - Qaytish yo‘nalishida korpuslar bloki aylantirilib, tuproq har safar bir tomonga ag‘dariladi. Bu dala yuzasini tekisroq saqlashga yordam beradi.

Yaruslab haydash - Maxsus ko‘p yarusli korpuslar yordamida tuproq qatlamlari belgilangan ketma-ketlikda kesiladi va joylashtiriladi.

Plug tanlash va ishlatishda e’tibor beriladigan agrotexnik talablar-haydash chuqurligi ekin turi, tuproq kesimi va agrotexnik tavsiyaga muvofiq belgilanishi kerak.

Plug korpuslari bir xil chuqurlikda ishlashi, haydalmagan yo‘laklar va ortiqcha takroriy ishlov qoldirmasligi lozim.

Ag‘darish sifati va qatlamning maydalanishi tuproq namligiga mos bo‘lishi zarur; haddan tashqari nam tuproqni haydash kesaklanish va zichlanishga olib kelishi mumkin.

Lemex, ag‘dargich, diskli pichoq va dala taxtalarining yeyilishi muntazam tekshirilishi kerak.

Plug traktor quvvati va tortish imkoniyatiga mos tanlanishi, ish tezligi hamda yonlama tortish kuchi me’yorida bo‘lishi lozim.

Maxsus pluglar qo‘llanganda dala sharoiti, ekin ildiz zonasi, sho‘rlanish darajasi, toshlar va yerosti kommunikatsiyalari hisobga olinishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pluglar tuproqqa asosiy ishlov berishda muhim o‘rin tutadi. Umumiy ishlarga mo‘ljallangan lemexli-ag‘dargichli pluglar odatiy shudgorlash ishlarida keng qo‘llanilsa, aylanma va diskli konstruksiyalar muayyan texnologik hamda tuproq sharoitlarida samarali natija beradi. Maxsus pluglar esa botqoq va butazor yerlarni o‘zlashtirish, plantatsiya tashkil etish, bog‘-tokzor qator oralariga ishlov berish, toshloq maydonlarda haydash, qatlamlab ishlov berish hamda meliorativ vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallanadi. Respublikamiz sharoitida plug turini tanlashda tuproqning mexanik tarkibi, namligi, sho‘rlanishi, relyefi, ekin turi va traktorning

energetik imkoniyatlarini birgalikda baholash zarur. To‘g‘ri tanlangan va sozlangan plug tuproqqa ishlov berish sifatini oshiradi, energiya sarfini maqbullashtiradi hamda keyingi agrotexnik tadbirlar uchun qulay sharoit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://srcyrl.yantailansu.com/info/types-of-conservation-tillage-their-advantage-95424775.html

2. M. Shoumarova., T. Abdillayev.. Qishloq xo‘jaligi mashinalari Kasb-hunar kollejlari uchun darslik / «Sharq» nashriyot // Toshkent – 2014

3. M.K.Kosimova Tuproqqa ishlov beruvchi ishchi organlarning yeyilish sabablari va yeyilish darajasini uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri/ Development of science // ISSN 3030-3907 / Iyun 2025/7

4. 4 Shoumarova M. Abdillayev T.. Qishloq xo‘jalik mashinalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009. – 504 b.

5. Sh.O.Jo‘rayeva.. Tuproqqa ishlov berish: texnika, usullar va texnologiyalar / Scientific Conference on Multidisciplinary Studies/ November, 2025 // Website: econfseries.com

6. Agricultural machinery - Mouldboard ploughs - Part 2: Specification for tractor operated plough. Draft East African Standard, DEAS 1178-2:2023.

7. UniversityAgro. Plow: classification, construction and application. 2025.

8. Tamil Nadu Agricultural University. Tillage Implements.

9. FAO. Guidelines and Reference Materials: Tillage Module.

Cooperative Patent Classification/ Soil working in agriculture or forestry; ploughs and special-purpose ploughs.

MUNDARIJA

1.	**MAKTAB PSIXOLOGIYASI AMALIYOTIDA O‘SMIRLARDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK OMILLARI VA PROFILAKTIKASI** **Xayrullayeva Baxtigul Ilxomjon qizi**	**5**
2.	**JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA, NAZARIYA VA AMALIYOT** **Jalilov Otabek Baxodirovich**	**10**
3.	**O‘SMIRLARDA PROBLEMATIK INTERNETDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA PSIXOLOGIK PROFILAKTIKASI** **Mansurova Zeboxon Tursinboyevna**	**16**
4.	**PSIXOLOGIYAGA OID TADQIQOTLARDA SPSS DASTURIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA STATISTIK TAHLIL ANIQLIGINI TA’MINLASH** **Nazarov Davron Baxtiyor o‘g‘li**	**26**
5.	**O‘SMIRLARDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI** **Arslonova Nafosat Akbaraliyevna, Ashurov Ramzidin**	**32**
6.	**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA INTEGRATSIYAGA ASOSLANGAN DARSLARNI TASHKIL ETISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH** **Abdisharipova Shaydo Bahtiyor qizi**	**38**
7.	**ZAIF ESHITUVCHI O‘QUVCHILARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOG VA OTA-ONA HAMKORLIGI** **Abduqodirova Dilobarbonu Erkinjon qizi**	**46**
8.	**SHAXS TEMPERAMENT TIPLARINI QO‘L TERMOGIGROANALIZI ORQALI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI** **Z.D. Dilmurodova**	**52**
9.	**СУБЪЕКТНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНАЯ АКТИВИЗАЦИЯ ЛИЦ ПОЖИЛОГО ВОЗРАСТА КАК ПСИХОПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ БАРЬЕР НЕЙРОДЕГЕНЕРАТИВНОЙ ПАТОЛОГИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ** **Асанова Гузаль Мухарамовна, Иброхимов Хусниёр Абдукарим угли**	**58**
10.	**KIMYO TA’LIMIDA AN’ANAVIY VA INNOVATSION O‘QITISH METODLARINI UYG‘UNLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI** **Sulaymonqulov Islomjon, Tursunova Yu. B.**	**63**
11.	**ZAMONAVIY TA’LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING NAZARIY ASOSLARI VA FUNKSIONAL IMKONIYATLARI** **Usmonova Zuxra Alisher qizi, Tursunova Yu.B.**	**68**

12.	**AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY DIDAKTIK PARADIGMALARDA TA’LIM NATIJALARINI TASHXISLASH YONDASHUVLARINING QIYOSIY TAHLILI**	
	Tursunova Feruza Otaqulovna	**73**
13	**ERTA NIKOHNING HUQUQIY VA PSIXOLOGIK OQIBATLARI**	
	Umarova Gulbaxor Maxamad qizi	**78**
14	**TA’LIMDA PSIXOLOGIK MOSLASHUVNING YANGI PARADIGMASI: RAQAMLI MUHIT, SHAXS VA PEDAGOGIK HAMKORLIK**	
	Qudratova Zarnigor Anvar qizi	**83**
15	**DINIY OG‘ISHLAR KONTEKSTIDA OMILLAR, PROFILAKTIKA VA PSIXOKORREKSIYA**	
	Agzamova Malika Muratovna, Turatoshova Zarnigor	**88**
16	**MILLIY VA ZAMONAVIY OILALARDAGI O‘ZARO FARQLAR. OILAVIY QADRIYATLAR, MULOQOT VA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI**	
	Abdumajidova Diyora Ashirqul qizi	**93**
17	**PALLIATIV YORDAMDA OILA A’ZOLARINING PSIXOLOGIK HOLATI: EMOTSIONAL TOLIQISH, QAYG‘U VA STRESS**	
	Bobomurotova Aziza Rustam qizi	**98**
18	**INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA PEDAGOGLARDA EMOTSIONAL SO‘NISH SINDROMINING OLDINI OLISH - BARQAROR TA’LIM MUHITINING PSIXOLOGIK SHARTI**	
	N. Umirzakova	**102**
19	**OILALARDA SHAXSIY CHEGARALARNING O‘RNI: O‘ZBEK OILALARINING MILLIY-MADANIY QADRIYATLARI VA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK EHTIYOJLARI KONTEKSTIDA**	
	Abdumajidova Diyora Ashirqul qizi	**106**
20	**IJTIMOIY TARMOQLARDAGI IDEAL AYOL OBRAZI VA AYOLLARDA AYBDORLIK HISSINING SHAKLLANISHI**	
	Shakirova Shahnozabonu Tuxta qizi	**111**
21	**SPECTRAL AND IMAGING SIGNATURES OF ACCRETION FLOWS AROUND ROTATING BLACK HOLES**	
	Ochiltosheva Durdonagul Zamon qizi	**115**
22	**ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ ЛИЧНОСТИ**	
	Хатамова Камилла Шухратовна, Баходирова Нозима Рустамовна	**121**
23	**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA FONETIK-FONEMATIK IDROKNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI**	
	Boboqulova Surayyo Madrahim qizi	**127**
24	**ИЗМЕНЕНИЕ ВНУТРИСЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ДЛИТЕЛЬНОГО ЛЕЧЕНИЯ РЕБЁНКА С ОНКОЛОГИЧЕСКИМ ЗАБОЛЕВАНИЕМ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна	**130**
25	**MAKTABGACHA TA’LIMDA NUTQIY RIVOJLANISH**	**136**

	Ruziyeva Dilfuza Nuritdinovna	
26	**СОЦИАЛЬНОЕ СРАВНЕНИЕ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ КАК ФАКТОР СНИЖЕНИЯ САМООЦЕНКИ ЛИЧНОСТИ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Юсупбаева Гоззал Юсупбаевна, Ганибекова Ситора Отабековна, Мадаминова Гулчехра Мардонбековна	**141**
27	**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KASB HUNARGA QIZIQISHLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI**	
	Sharipova Guzal Sodiqovna, Musayeva Madina Jahongir qizi	**145**
28	**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ СТУДЕНТОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Раимжанова Севинч Олимовна, Марсакова Малика Фазилиддин кизи, Махмудова Ширин Муроджон кизи	**153**
29	**IJTIMOIY TARMOQLARDAGI LAYK VA IZOHLARNING O‘SMIRLARDA TASHQI BAHOLANISHGA EHTIYOJ SHAKLLANISHIGA TA’SIRI**	
	Maxmudov Salimjon Uralovich	**158**
30	**ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ВОСПРИЯТИЕ СОБСТВЕННОЙ ЛИЧНОСТИ И САМООЦЕНКУ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Багаутдинова Саида, Курамшина Алия	**164**
31	**MOLIYAVIY STRESSNING IQTISODIY QAROR QABUL QILISH JARAYONIGA TA’SIRI**	
	Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**168**
32	**ШКОЛЬНЫЙ БУЛЛИНГ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ ПОДРОСТКОВ: ПРИЧИНЫ, ПОСЛЕДСТВИЯ И ПРОФИЛАКТИКА**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Абдуллаева Манзура Олимбек кизи, Солтоева Мадинахон Дилшод кизи	**172**
33	**O‘SMIRLARDA DEVIANTLILIKNING KONATIV ASPEKTLARINI TADQIQ ETISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA VA INNOVATSION PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**	
	Turayeva Gulchehra Urayimovna	**179**
34	**СПЕЦИФИКА ТЕЛЕСНЫХ ЖАЛОБ У ЛИЦ С РАЗЛИЧНОЙ ВЫРАЖЕННОСТЬЮ АЛЕКСИТИМИИ**	
	Асанова Гузаль Мухарамовна, Панасырова Сабина Вячеславовна, Набижанова Нигорахон Нематжановна, Герман Карина Алексеевна	**184**
35	**“NS-PSIXOTEST EKSPERT” KOMPYUTERLI PSIXODIAGNOSTIK MAJMUASINING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDAGI IMKONIYATLARI**	
	Mavlanov Donyor Ergash o‘g‘li	**191**

36	**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАЩИТНЫЕ МЕХАНИЗМЫ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ БЛИЗОСТИ В МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ** **Асанова Гузаль Мухарамовна, Слодкина Валерия Дмитриевна, Хисаметдинова Элина Эмильевна**	**197**
37	**BUXORO VILOYATI SHAROITIDA KICHIK QUVVATLI SHAMOL ELEKTR QURILMALARINING ENERGETIK KO‘RSATKICHLARINI VEYBULL TAQSIMOTI ASOSIDA BAHOLASH VA OPTIMAL TURBINA TANLASH** **D.A. Tursunov, N.A. Nasulloyeva**	**201**
38	**PLUGLARNING TURLARI VA ULAR BILAN TUPROQQA ASOSIY ISHLOV BERISH AHAMIYATI** **Fayzulloyev Muxriddin Nasriddin o‘g‘li, Sayfulloyev Azizbek Anvarjon o‘g‘li, Orziyev Sardor Samandar o‘g‘li**	**208**
39	**BUXORO VILOYATI ISSIQ IQLIM SHAROITIDA FOTOELEKTR MODULLARNING HARORAT REJIMINI MODELLASHTIRISH VA PASSIV RADIATORLI SOVITISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH** **D.A. Tursunov, U.Q. Shermetov**	**215**
40	**“BUXORO HETK” AJ TAQSIMLOVCHI TARMOQLARIDA SUN’IY INTELLEKT VA MASHINALI O‘QITISH USULLARINI QO‘LLASH** **A.H. Shoboyev, N.M. Amrulloyeva**	**223**
41	**PAXTA SANOATIDA TOSH TUTGICH QURILMASINI AHAMIYATI VA ISHLASH MEXANIZMI** **Raxmonov Xayridin Qodirovich, Baxshilloyeva Shaxrizoda Davlat qizi**	**230**
42	**O‘ZBEK SHE’RIYATIDA “VATAN” KONSEPTINING KONTRASTLAR ORQALI IFODALANISHI** **Xolmo‘minova Mahliyo Ravshan qizi**	**234**
43	**АНГЛИЙСКИЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЦИФРОВОМ ДИСКУРСЕ: ТЕМАТИКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ И СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ** **Тураханов Акром Абдуллахакимович, Тураханова Фируза Шавкатовна**	**238**
44	**BUYUK DAVLAT ARBOBI ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR** **Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi**	**256**
45	**INNOVATIVE APPROACHES TO TRANSFORMING LIFELONG EDUCATION: FOREIGN EXPERIENCE, PROBLEMS AND SOLUTIONS** **Akrom Abdullakhakimovich Turakhanov, Firuza Shavkatovna Turakhanova**	**261**
46	**LINGUODIDACTIC FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS’ PRODUCTIVE LANGUAGE SKILLS IN ENGLISH** **Meylinorova Feruza Baxtiyor qizi**	**269**

47	**HOZIRGI O‘ZBEK RAQAMLI DISKURSIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMALARNING MAVZUVIY-KONSEPTUAL VA STRUKTURAVIY-SEMANTIK MOSLASHUV XUSUSIYATLARI**	
	Turaxanov Akrom Abdullaxakimovich, Turaxonova Firuza Shavkatovna	**275**
48	**SUN’IY INTELLEKT VA O‘ZBEK ADABIYOTI: MUALLIFLIK, INTERTEKSTUALLIK VA BADIIY QIYMAT MASALALARI**	
	Narmatova Manzura Tulaganovna	**289**
49	**PRAGMATIC TRANSFER AND CULTURAL BIAS IN LARGE LANGUAGE MODEL TRANSLATIONS OF HIGH-CONTEXT SPEECH ACTS**	
	Nurullayev Mirzabek Kobil ugli, Usmonkulova Nilufar Uchkun kizi	**298**
50	**THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLEGENCE IN EDUCATION: OPPORTUNITIES, PROBLEMS, PROSPECTS**	
	Teshaboyeva Jasmina Elmuradovna, N.Kh.Kholmakhmadova	**303**
51	**TILSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIK LEKSIKANING NAZARIY ASOSLARI**	
	Xolmurodova Parvena Mamayusupovna, Bakirov Poyan Uralovich	**307**

Tahririyatga taqdim etilgan materiallar qaytarilmaydi. Barcha ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan dastlabki ko‘rib chiqish, ilmiy ekspertiza va taqriz jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalning mavzu va ilmiy yo‘nalishlariga mos kelmagan, tahririyat tomonidan belgilangan talablar hamda nashr etish mezonlariga javob bermagan maqolalarni nashrga qabul qilmaslik huquqi tahririyatda saqlanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ nashriyotida nashrga tayyorlandi va jurnalning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi
Tahririyat manzili: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Bunyodobod MFY, 8-uy
Rasmiy veb-sayt: https://fanlararotadqiqotlar.uz/index.php/conference/r
E-mail: publisher@fanlararotadqiqotlar.uz